

XIX ASRDA O'RTA OSIYODA ALOQA TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

*Rajabova Zilola Kahramon qizi, Urganch Ranch texnologiya
universiteti o'qituvchisi*

THE FORMATION AND DEVELOPMENT HISTORY OF THE COMMUNICATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA IN THE 19TH CENTURY

*Rajabova Zilola Kahramon qizi, Lecturer at Urgench Ranch
Technology University*

ФОРМИРОВАНИЕ И ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ СВЯЗИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В XIX ВЕКЕ

*Раджабова Зилола Кахрамон кизи, преподаватель
Университета технологий Ургенч Ранч*



<https://orcid.org/0009-0000-0772-5002>

e-mail:
rajabovazilola1994@gmail.
com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda aloqa tizimining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. O'rta asrlardan boshlab Xorazm va boshqa hududlarda aloqa xizmatining davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar va savdo aloqalaridagi o'rni ko'rib chiqiladi. Xususan, "Sohibi a'fol" va "Sohib bari" lavozimlari orqali xatlar va diplomatik hujjatlarning yetkazilish jarayoni, savdo karvonlari orqali axborot almashish tizimi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'rta asrlar, pochta tizimi, Sohibi a'fol, Sohib bari, choparlar, savdo karvonlari, aloqa tizimi, pochta va telegraf, chor Rossiyasi, temir yo'l, telekommunikatsiya.

Abstract: This article explores the historical formation and developmental stages of the communication system in Central Asia. It examines the role of postal services in state governance, military campaigns, and trade relations in Khorezm and other regions, starting from the medieval period. In particular, the positions of Sohibi a'fol and Sohib bari are analyzed as key elements in the delivery of letters and diplomatic documents, as well as the information exchange system through trade caravans.

Key words: Medieval period, postal system, Sohibi a'fol, Sohib bari, couriers, trade caravans, communication system, post and telegraph, Tsarist Russia, railway, telecommunications.

Аннотация: В данной статье рассматривается историческое формирование и этапы развития системы связи в Средней Азии. Анализируется роль почтовой службы в государственном управлении, военных походах и торговых связях в Хорезме и других регионах, начиная с периода Средневековья. В частности, исследуются должности "Сохиби афол" и "Сохиб бари" как важные элементы передачи писем и дипломатических документов, а также механизм обмена информацией через торговые караваны.

Ключевые слова: Средневековье, почтовая система, Сохиби афол, Сохиб бари, курьеры, торговые караваны, система связи, почта и телеграф, Царская Россия, железная дорога, телекоммуникации.

KIRISH. Aloqa tizimi insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, qadimgi davrlardan boshlab axborot almashishning muhim vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Xususan, O'rta

Osiyoda davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar va savdo aloqalarini rivojlantirishda pochta va xat tashish tizimining o'rni katta bo'lgan.

O'rta asrlarda Xorazm va boshqa hududlarda *Sohibi a'fol* va *Sohib bari* lavozimlariga ega shaxslar davlat va xususiy shaxslarning maktublarini yetkazish bilan shug'ullangan. Savdo yo'llari bo'ylab maxsus pochta bekatlari tashkil etilgan bo'lib, choparlar tezkor otlar yordamida xabarlarni manziliga yetkazgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

O'rta Osiyoda pochta va aloqa tizimining shakllanishi, rivojlanishi va modernizatsiya jarayonlariga oid ilmiy tadqiqotlar va tarixiy manbalar turli davrlarda turli xil metodologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan pochta tizimining rivojlanish bosqichlarini yangicha ilmiy qarashlar asosida tadqiq etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Ushbu yo'nalishda Sovet davrida mavzu doirasida B.A.Rixsiyev[1], X.S. Salamullayev[2], Y.Muhammedov[3], A.G.Abduganiyev[4] kabi tadqiqotchilar mavzuni tarixiylik nuqtayi-nazaridan izchil yoritishga harakat qilganlar. Shu bilan bir qatorda, e'tirof etish kerakki, tadqiqotlarda Xorazm viloyatidagi pochta aloqasiga oid ma'lumotlarga kam o'rin ajratilgan

Mustaqillik yillarida mavzu doirasida tarixchi professorlar M.Matniyazov [5], M.Mahmudov[6], O.Masharipov[7], tadqiqotchilar O'Q.Muhammadiyev[8], O.Mutalov [9], O.Qo'shjonov va N.Polvonov[10], U.Muhammad [11], A.Mo'minovning[12] kitoblarida aloqa sohasiga oid ma'lumotlar biroz aks ettirilgan bo'lsa-da, yetarli o'rin ajratilmagan.

Bu tadqiqotlarda O'rta Osiyoda pochta tizimining dastlabki shakllanishi, aloqa tizimining tarixiy rivojlanishini o'rganish jarayonida bir qator arxiv materiallari va hujjatlar, jumladan, O'rta Osiyo chor Rossiyasi mustamlakachilik davriga oid aloqa hujjatlari, Xiva xonligi va Buxoro amirligidagi pochta tizimiga oid yozma manbalar, sovet davri rasmiy hisobotlari va statistik ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi aloqa tarixi muzeyi materiallari asosida tahlil olib borildi. Bu tadqiqotlarda pochta tizimining harbiy va savdo aloqalaridagi o'rni, davlat boshqaruvidagi roli hamda uning modernizatsiya jarayonlari o'z aksini topgan. Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo chor Rossiyasi tarkibiga kiritilishi bilan pochta va telegraf

tizimining rivojlanishi yangi bosqichga chiqdi. 1881-1886-yillarda temir yo'l va simli telegraf joriy etilishi natijasida pochta tashish jarayoni tezlashdi. 1888-yildan boshlab temir yo'llar orqali pochta xizmati yo'lga qo'yildi, 1890-yilda esa Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l) shahrida zamonaviy pochta va telegraf mahkamasi tashkil qilindi. Ushbu maqolada tarixiy manbalar va faktlarga asoslangan holda O'rta Osiyodagi aloqa tizimining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, qadimgi pochta tizimi va uning zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq evolyutsiyasi yoritiladi. O'rta asrlarda aloqa xizmati davlat boshqaruvi va savdo aloqalarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Ayniqsa, Xorazm hududida bu xizmat ancha rivojlangan bo'lib, bu sohada faoliyat yurituvchi shaxs *Sohibi a'fol* yoki *Sohib bari* deb atalgan. "A'fol" so'zi "ishlar" degan ma'noni anglatgan bo'lsa, "bari" so'zi esa "eltish, olib borish" tushunchasini ifodalagan. *Sohib bari* nafaqat aloqa xizmatiga mas'ul bo'lib, balki boshqa davlat ishlarida ham faol ishtirok etgan. Uning asosiy vazifalaridan biri xatlar va shaxsiy maktublarni manzillariga yetkazish bo'lgan. Ayrim hollarda, muhim davlat xabarlari va elchilik xatlarining yetkazilishi bevosita *Sohib bari* tomonidan yoki unga ishonib topshirilgan maxsus choparlar orqali amalga oshirilgan. Markaziy Osiyo, jumladan, Xorazmda aloqa tizimi savdo va harbiy yo'llar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, karvon yo'llari bo'ylab pochta xizmatining yo'lga qo'yilgani tarixiy haqiqatdir. Bu tizimning samarali ishlashi uchun yo'llar bo'ylab maxsus bekatlar tashkil etilgan bo'lib, ularda xabarchilar, choparlar va podsho vakillari joylashgan. Ushbu bekatlarda yetkazilayotgan xatlar va xabarchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan, choparlarning yo'lni tez bosib o'tishi uchun ularga tezkor va bardoshli otlar berilgan. O'rta asrlarda Xorazm va uning atroflarida savdo-sotiq faoliyati yuksak darajada rivojlangan bo'lib, aynan shu sababli pochta xizmati ham nafaqat davlat arboblari va harbiy qismlar uchun, balki oddiy savdogarlar, sayohatchilar hamda karvon yetakchilari uchun ham dolzarb ehtiyojga aylangan. Ushbu tizim rivojlanishi natijasida davlat xabarlari va xususiy shaxslarning maktublari tezroq yetkazila boshlangan. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xat-xabarlarni yetkazish va nazorat qilish maxsus devon tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy fuqarolarga esa ko'pincha savdo karvonlari tarkibidagi alohida

shaxslar yoki xabarchilar pochta xizmatini ko'rsatgan. Ayrim hollarda, xususiylar xatlar o'z manziliga yetib bormagan yoki yo'qolgan, bu esa aloqa tizimidagi muammolar va kamchiliklar mavjudligini anglatgan. Shunga qaramay, pochta tizimi asta-sekin takomillashib, yanada mustahkam va samarali mexanizmlarga ega bo'lib borgan. Shuningdek, o'sha davrda maxsus maxfiy xabarchilar ham mavjud bo'lib, ular davlat sirlarini yetkazish va maxfiy diplomatik aloqalarni amalga oshirish uchun jalb etilgan. Ushbu maxsus aloqa xizmati davlat manfaatlarini himoya qilish va ichki siyosatni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Shu tariqa, Xorazm va unga qo'shni hududlarda aloqa xizmati nafaqat davlat boshqaruvi uchun, balki xalqaro savdo va madaniy aloqalar uchun ham asosiy ko'priklarni vazifasini o'tagan. Ushbu tizim asrlar davomida takomillashib, keyingi davrlarda yanada rivojlangan aloqa vositalari paydo bo'lishiga asos solgan. Bu davrning dastlabki bosqichlarida ko'rkamlilikda xat-xabarlarini yetkazishda maxsus aravalardan foydalanilgan. Xabar olib tashiydigan yengil aravalarning tezligi ancha yuqori bo'lgan. Bunday usulda xat-xabar yetkazish maxsus pochta yo'llari barpo etilishi orqali takomillashgan. Pochta va xat tashuvchilarning vazifasini asosan otliq choparlar yoki "elchilar" bajargan. Bu choparlar davlat hokimiyati tasarrufida bo'lib, ular xon, yirik boylar va savdogarlar uchun xizmat qilgan. Hukmdorlar va yuqori tabaqa vakillari rasmiy hujjatlarni yetkazish uchun maxsus choparlar tayinlangan bo'lsa, oddiy xalqning axborot almashinuvi ko'pincha og'zaki tarzda amalga oshirilgan. Ushbu davrda xalq orasidagi muhim yangiliklar va xabarlar asosan tildan-tilga yod olingan holda uzatilgan. Odamlar odatda bozor maydonchalari, masjidlar yoki boshqa jamoat joylarida yig'ilib, yangiliklarni tinglagan va og'zaki ravishda tarqatganlar. Yozma xabarlar nisbatan kam uchragan, chunki savodxonlik darajasi past bo'lgan va aloqa vositalari cheklangan edi. Pochta tizimi asosan davlat ishlariga xizmat qilgan bo'lib, rasmiy yozishmalar va hukmdorlararo diplomatik maktublarni yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblangan. Biroq, bu davrga kelib, chor Rossiyasi hukmronligi ostida aloqa tizimini isloh qilish va takomillashtirishga harakatlar boshlangan.

XULOSA. XIX asrda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga kirib kelishi pochta va

telegraf infratuzilmasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. 1880-1890-yillarda pochta-telegraf bo'limlari tashkil etilib, temir yo'llar orqali pochta tashish jadallashdi. Bu jarayon davlat boshqaruvi, savdo va harbiy axborot almashinuvi samaradorligini oshirdi. Dastlab davlat ehtiyojlariga xizmat qilgan pochta tizimi keyinchalik aholi uchun ham axborot almashish vositasiga aylandi. XIX asr oxiriga kelib, bu tizim zamonaviy aloqa infratuzilmasiga asos yaratib, mintaqadagi kommunikatsiyalar rivojlanishiga poydevor bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Саламуллаев Х.С. Ўзбекистонда алоқа тармоқлари ва воситаларининг асосий йўналишлари, ютуқлари ва муаммолари: тарихий нуқтаи назар (1917-1941). — Тарих фан. ... номз. дисс. автореф. — Тошкент, 1994. — 35 б.
2. Мухамедов Ю.Х. Ўзбекистонда почта алоқаси. — Тошкент: Ўзбекистон, 1959. — 127 б.
3. Очерки истории развития связи в Узбекистане: социально-политические аспекты // Под ред. Профессора А.Г. Абдунабиева). — Ташкент: Фан, 1991. — 141 с.
4. Матниязов М. Хоразм тарихи, 1-2 жилд. — Урганч: Хоразм, 1996; 1-жилд. — 418 б.; 1997. — 2-жилд. — 298 б.
5. Махмудов М. Хива хонлиги тарихи. — Урганч, 2006. — 149 б.
6. Машарипов О. Хоразмнома. 3-китоб: XIV асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг биринчи чорагида Хоразм, Хива хонлиги. — Урганч: Хоразм, 2009. — 240 б.
7. Мухаммадиев Ў. Бир зумдаги алоқа. — Тошкент: Фан, 2000. — 117 б.
- Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. — Тошкент, 2005. — 141 б.
8. Қўшжонов О., Полвонов, Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. — Тошкент: Абу Матбуот-Консалт МЧЖ, 2007. — 386 б.
9. Бекмуҳаммад У. Хоразм тарихидан саҳифалар. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. — 193 б.
10. Алимарданов М. Ўчмас шараф. — Тошкент: Доно МЧЖ, 2017. — 155 б.
11. Мўминов А. Ўзбекистон ахборотлашган жамият сари. — Тошкент: Турон замин зиё, 2013. — 163 б.;
12. Машарипов, М. Ойнаи жаҳон. — Урганч: Хоразм, 2012. — 84 б.